

## “MUBAYYAN” VA “HIDOYA” ASARLARIDA ZAKOT MASALASINING YORITILISHI

**Kenjaboy Gulruh Mirzo qizi**

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ijtimoiy - gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari fakulteti Adabiy matnshunoslik va manbashunoslik kafedراس*

**Annotatsiya.** *“Mubayyan” aslida “Hidoya”ga suyanib yozilganligi bois faqatgina farqli jihatlari emas, balki o'xshash jihatlari ham talaygina. Jumladan, zakot kitobi bayonidagi zakot berish kerak bo'lgan o'rinlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqsak, deyarli farqlar sezilmaydi.*

**Kalit so'zlar:** *Mubayyan, Hidoya, zakot masalasi, Nazmning ma'nosi, «Mabsut» asari.*

**Kirish.** Zakot beriladigan (haqdor) kishilarni Alloh ta'olo (Qur'oni karimda) sakkizta deb aytgan. Barchasini aytayin, eshiting. Biri faqir, ikkinchi miskin, yana uchinchi omil(i zakot)dir (ya'ni, zakot, ushr va xirojni yig'uvchi kishidir). Yana muallafatul-qulub (qalblari do'st qilinadigan kishilar). Beshinchisi mukotab (ozod bo'lishi haqida hojasi bilan ahdlashib, o'z qimmatiga kafil bo'lgan qul). Oltinchisi - qarzdor muhtoj; yana (Alloh yo'lidagi) askarlar va hojilar (ya'ni, fi sabil). Sakkizinchisi g'ariblardir, bil. Barchasining sharhini aytayin, eshit. Faqir deb shari'at ahli ul kishini aytadiki, uning moli nisob miqdoridan kamdir. U kasb qilmoqqa ham qodir bo'ladi, lekin kirmi chiqimidan (xarjidan) kam bo'ladi. Shari'at ul kishini miskin deb atadiki, uning kasb qilishga qudrati (quvvati) bo'lmaydi. Lekin unda dunyoning jinsi (narsasi) ham bo'lmaydi, u hech narsaga molik (ega) emasdir. Bilki, u kishi molik(i zakot) deb ataladiki, u xiroj, ushr va zakotni yig'adi (unga amali miqdoricha zakotdan beriladi). Bu zamonda muallafatul-qulub (qalbi do'st qilinadigan kishilar) yo'qligi uchun uning hukmini zikr qilmadim. Shari'at qaysi kishini mukotab deb ataydi, bilib ol, men senga sharh etay, eshitg. Agar xoja bilan qul muayyan muddat uchun (kelishib) bir baho ustida qaror qilishsa, agar qul bu muddatda u bahoni ado qilganda u fursatda ozod bo'ladigan bo'lsa (ana shu qul mukotabdir). Ushbulardan birisi madyun, ya'ni qarzdordir, lekin har bir qarzdorni ham (zakotga) haqdor deb sanama. Qarzdor ortig'ini hisoblab chiq, agar u karzidan ortib qolgan moli nisobiga yetmasa, men ana shu sifatdagi kishini qarzdor deb atadim, bu qarzdorni zakotga haqdor deb bil. Yana (Alloh yo'lidagi) hojilar bilan (Alloh yo'lidagi) askarlardir, agar ular faqir bo'lsalar, ularga zakot ber. Bil, (ibni sabil) g'arib uldirki, gurbatda azob va qattiqchilik bilan kun kechiradi. (Uning moli bordir-u, ammo yonida emas). U o'z vatanida har qancha ganiy-boy bo'lsa ham, (g'ariblikda muhtoj bo'lgani uchun) uni zakotga haqdor deb bil.



Endi, “Hidoya”da kelgan matnni ko‘rib chiqamiz: “Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: «Bu boradagi asos Alloh taoloning «Albatta, sadaqalar (ya’ni, zakotlar) faqat faqirlar, miskinlar, sadaqa yig‘uvchilar, ko‘ngillari (islomga) oshna qilinuvchilar, (pul to‘lab ozod qilinuvchi) qullar, qarzdorlar va Alloh yo‘lida (yurganlarga) hamda musofirlarga berish Alloh (tomoni) dan farz etildi. Alloh ilmli va hikmatli zotdir», degan so‘zidir. Ushbu oyati karimada zikr qilingan sakkiz toifa zakot olishga munosibdirlar. Ushbu sakkiz toifadan bir toifasi, ya’ni, «ko‘ngillari Islomga oshna qilinuvchi kishilar» bundan chiqarilgan, chunki Alloh taolo Islom dinini quvvatli qilib, bunday toifalarga ehtiyoj qolmadi va bunga barcha ulamolar ijmo‘ qilganlar. Faqir deb ozgina narsasi bor kishiga, miskin esa, hech narsasi yo‘q kishiga aytiladi. Bu me‘yor Abu Hanifa rahmatullohi alayhdan rivoyat qilingan. Bir rivoyatda buning aksi aytilgan. Bularning har birining ham o‘z fikrlariga asos va dalillari bor. Bularning ikkisi (ya’ni, faqir va miskinlar) ikki toifadagi odamlarmi yoki bir toifadagi odamlar bu haqda, inshaalloh, «Vasiyatlar» bobida bayon qilamiz”.

Agar tijoratchi kafir zimmiy bo‘lsa (islom panohidagi bedin bo‘lsa), ushrchi uning yigirmadan bir (qism) molidan (zakot) oladi”. Ana endi “Hidoya”da kelgan matn bilan tanishib chiqamiz: “Qanday mol bo‘lishidan qat’i nazar, tijorat mollarining qiymati tilla yo zarh qilingan kumush narxida nisobga yetsa, undan zakot berish vojibdir. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Tijorat mollarini (kumushga) narxlab, har ikki yuz dirhamdan besh dirham zakot beradi», deganlar. Chunki bu mollar banda tomonidan ko‘paytirish maqsadida hozirlagandir. Shu bois ular shariat tomonidan hozirlangan (tilla va kumush singari) molga o‘xshab qoladi. Shuningdek, ushbu mollarni tijoratga hozirlangani isbotlanishi uchun tijorat niyati bo‘lishi shartdir.

Burhonuddin Marg‘oniy rahmatullohi alayh aytadilar: Bu hukm Abu Hanifa rahmatullohi alayhdan qilingan rivoyat, «Mabsut» asarida, Abu Hanifa rahmatullohi alayh yuqoridagi masala bo‘yicha molning narxini belgilashda ixtiyorni mol egasiga berganlar, deyilgan. Chunki narsalarning narxini chiqarishda kumush bilan tillaning narxi barobardir. «Foydalirog‘i» degan so‘zning ma‘nosi, (tilla yoki kumushning qaysi biri) nisobga yetsa, shu bilan narx bichiladi, deganidir. Abu Yusuf rahmatullohi alayhdan qilingan rivoyatda, mol egasi (tijorat mollarini) pulga sotib olgan bo‘lsa, sotib olgan pul bilan narxlaydi, chunki molning qiymatini aniqlashda eng qulayi shudir. Agarda tijorat mollarni puldan boshqa narsaga sotib olgan bo‘lsa, ko‘proq iste’molda bo‘lgan pul vositasi bilan narxlaydi, deyilgan. Muhammad rahmatullohi alayhdan qilingan rivoyatda, tijorat molini qanday pulga sotib olgan bo‘lsa ham, ko‘proq muomalada bo‘lib turgan pul bilan narxlaydi, deyilgan. Buning hukmi tortib olingan va ishlatib yuborilgan mol hukmi kabidir.

Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: «Nisob mukammal bo‘lishi uchun tijorat mollarining qiymati kumush va tillaga qo‘shib hisob qilinadi. Chunki bularning barchasida zakot vojib bo‘lishining boisi, tijorat maqsadida bo‘lganidandir, garchi

ulardagi tayyorlanish jihati farqli bo'lsa ham». Tillani kumushga qo'shib hisoblanadi, chunki ular pul bo'lgani e'tiboridan bir-biriga o'xshashdir (jinsi birdir). Bu e'tibordan (tilla va kumush) zakot berishga sabab bo'ldi. Abu Hanifa rahmatullohi alayhga ko'ra, tilla va kumushning qiymati bir-biriga qo'shiladi. Abu Yusuf va Muhammad rahmatullohi alayhga ko'ra esa, ularning miqdorini (vaznini) e'tiborga olib qo'shiladi. Va bu Abu Hanifa rahmatullohi alayhdan ham qilingan rivoyatdir. Ushbu fikrga ko'ra, kimning yuz dirham kumushi va besh misqol tillasi bo'lsa va bu tillaning qiymati yuz dirhamga yetadigan bo'lsa, Abu Hanifaga ko'ra, u kishiga zakot vojib bo'ladi. Abu Yusuf va Muhammad rahmatullohi alayhga ko'ra, zakot vojib bo'lmaydi. Chunki bu ikki Imom aytadilarki, tilla va kumushda qiymati emas, miqdor (ya'ni, ayni o'zi) e'tibor qilinadi. Zero, vazni ikki yuz dirhamdan kamroq, lekin qiymati ikki yuz dirhamdan yuqori bo'lgan bir idishda zakot vojib emas. Abu Hanifa rahmatullohi alayh aytadilarki, tillani kumushga qo'shilgani ularning (pullik nuqtai nazaridan) jinsi bir bo'lgani uchundir. Bu hamjinslik surat (shakl) e'tiboridan emas, qiymat e'tiboridan ro'yobga chiqadi. Alloh taolo bilguvchiroqdir».

Guvohi bo'lganimizdek, "Mubayyan" da "Hidoya" dagi hukmlar mo'jazroq uslubda yoritilgan. Masalan, tijorat moli bo'lgan tilla va kumushlarni Abu Hanifa rahmatullohi alayh hisoblashda ularning narxlari qo'shiladi, degan bo'lsalar, ikki imomlar vazni qo'shiladi, deb fikr bildirishgan. "Hidoya" da ushbu masala ixtilof nega yuzaga kelgani, sabablari bilan bayon qilingan bo'lsa, "Mubayyan" da faqatgina fatvo berilgan ikki imomning gapi bilan kifoyalangan. Zero, yuqorida ham ko'p bora ta'kidlaganimizdek, Mirzo Bobur ushbu kitobni shariat ilmidagi "yangi" bo'lganlar uchun yozganligi sababli, bu kabi ixtiloflarning keltirilishi ham maqsadga muvofiq bo'lmas edi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Urdu doirai ma'orifi islomiya" ensiklopediyasi, Panjob universiteti nashri. h.1392, m.1972 yil. 3-jild.
2. Mirzo Kenjabek, "Bobur Mirzo – buyuk faqih" // "Yer yuzi" jurnali, 2014-yil, 2 (6)-son, 16-bet
3. Hasanxo'ja Nisoriy. "Muzakkiri abob" ("Do'stlar yodnomasi"). Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasini. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.